(6). Hermans, T. (1988). On translating proper names, with reference to De Witte and Max Havelaar. In M. J. Wintle (ed.) Modern Dutch Studies. Essays in Honour of Professor Peter King on the Occasion of his Retirement. London/ Atlantic Highlands: The Athlone Press, p. 112–156.

(7). Hervey, S. and Higgins, I. (1992). Thinking Translation. London and New York, Routledge, p. 166–190.

Sadikova Dildora Nizomovna (Navoiy davlat universiteti "Ingliz tili amaliy kursi" kafedrasi o'qituvchisi; dilya.sadikova@list.ru)

INTERTEKSTUALLIK KATEGORIYASI VA ULARNING TAHLILI: ALLUZIYA, SITATA, RAMZ

Annotatsiya. *Ushbu maqola postmodernizm adabiyotida keng uchraydigan intertekstuallikning (ya'ni matnlararo ma'noviy bog'lanish) kategoriyalari bo'lmish alluziya (talmeh) iqtibos va ramziylikning turlari va ular misollar asosida tahlil qilingan. Matnlardagi o'zaro ma'noviy bog'liqlik bilvosita ushbu kategoriyalar asosida amalga oshirilib, nozik ishora berish, turli ramzlarning bir ma'noda kasb etishi va keltirilgan sitatalar matnga yanada o'zgacha kuch berishi ta'kidlab o'tilgan va tahlil qilingan.*

Kalit so'zlar: *interstektuallik, alluziya, sitata, ramzlar.*

Садикова Дильдора Низомовна (преподаватель кафедры практического курса английского языка Навоийского государственного университета; dilya.sadikova@list.ru)

КАТЕГОРИИ ИНТЕРТЕКСТУАЛЬНОСТИ И ИХ АНАЛИЗ: АЛЛЮЗИЯ, ЦИТАТА, СИМВОЛ

Аннотации. *В данной статье на основе примеров анализируются виды аллюзии (тальме), цитирования и символизма, представляющие собой категории интертекстуальности (духовной связи между текстами), распространенные в литературе постмодернизма. На основе этих категорий косвенно реализуется смысловая взаимосвязь в текстах, подчеркивается, что тонкие намеки, приобретение разных символов в одном и том же значении, цитируемые цитаты придают тексту особую силу.*

Ключевые слова: *интертекстуальность, аллюзия, цитата, символы.*

Sadikova Dildora Nizomovna (Navoi State University, Department of Practical English Course; assistant teacher; dilya.sadikova@list.ru)

CATEGORIES OF INTERTEXTUALITY AND THEIR ANALYSIS: ALLUSION, QUOTATION, SYMBOLISM

Annotation. *This article analyzes the categories of intertextuality – namely, allusion (talmeh), quotation, and symbolism–that are widely found in postmodern literature. It examines their various types and provides examples. The mutual semantic connections between texts are established indirectly through these categories, emphasizing how subtle references, the multifaceted meanings of various symbols, and the inclusion of quotations enhance the text's impact and depth.*

Key words: *intertextuality, allusion, quotation, symbol.*

Kirish. Intertekstuallik – bu bir matnni boshqa bir matndan shakllantirish jarayoni bo'lib, o'quvchilar matnlar o'rtasidagi bog'liqlik va o'xshashlikni tushunishlari mumkin.

Intertekstuallik tushunchasi hozirgi kunda filmlar va tasviriy san'atlar shakllarida ham ko'rinadi. Bu nazariyaning ildizlari 20-asr boshlaridagi tilshunoslikdan kelib chiqqan bo'lib, u, avval, boshida faqat adabiy yozuvlarga nisbatan qo'llanilgan. "Intertekstual" atamasini birinchi marta fransuz-bulg'or adabiyot tanqidchisi, yozuvchi Juliya Kristeva 1960-yillarda Baxtinning dialogizm va karnaval haqidagi g'oyalarini tahlil qilish asnosida qo'llagan. Bu atama lotincha *intertexto* so'zidan kelib chiqqan bo'lib, *to'qish vaqtida aralashtirish* ma'nosini anglatadi. Uning fikriga ko'ra, barcha matnlar *suhbatda* bo'ladi va ularning o'zaro bog'liqliklarini to'liq o'qimasdan anglash qiyin bo'lmaydi yoki tushunish mumkin emas (Abraham M.H, 2014) J.Krestiva nazariyasi asosida intertekstuallik postmodern tahlil va ishlarining asosiy xususiyatiga aylandi. Lekin shunisi ahamaiyatliki, intertekstuallik nazariyasi yaratilganidan ancha avval, uning amaliyoti mavjud bo'lganini esda tutish muhimdir.

Bir matnning boshqa bir matnni keltirib o'tishi, zikr qilishi yoki unga ishora qilishi *intertekstuallik* deb ataladi. Turli matnlar o'rtasidagi o'zaro aloqa va bog'liqlik, matn ma'nosining boshqa matnlar bilan munosabati tufayli shakllanishi yoki ta'sirlanishi bilan izohlanadi. Yozuvchi yoki shoir turli maqsadlarga ko'ra intertekstuallikdan foydalanishi mumkin. Ularning maqsadiga muvoffiq holda, intertekstuallikni turli yo'llar bilan namoyon qilishlari mumkin. Ular ishoralarni bevosita yoki bilvosita qo'llashlari mumkin. Shuningdek, yozuvchi ishora orqali o'z ilhom manbasini ta'kidlashi, hazil qilish yoki avvaldan nashr etilgan asarni qayta sharhlash maqsadida ham intertekstuallikdan foydalanishi mumkin. Intertekstuallikning

ko‘plab qo‘llanish va unga bog‘liq maqsadlari mavjudligi sababli har bir misolni tahlil qilib, bu usulning sabablari va metodologiyasini tushunish maqsadga muvofiqdir.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Intertekstuallik nazariyasi asoschilaridan biri bo‘lgan fransuz adabiyot tanqitchisi, yozuvchisi J.Krestivaning nazariyasini davomiy sifatida Jerar Jenett *transtekstuallik* nazariyasidagi birinchi kategoriya sifatida *intertekstuallik* tushunchasini muhokama qilgan va u transtekstuallik nazariyasida asosiy elementi sifatida xizmat qilishini olg‘a surgan. Nazariya bir nechta elementlar yoki sub’ektlar o‘rtasidagi munosabatlar yoki o‘zaro ta’sirlarni ko‘rsatadi. J.Jenett intertekstuallikni matnlar o‘rtasidagi *hammavjudlik munosabati* sifatida ta’riflaydi, ya’ni, bir matnning boshqa bir matnda aniq yoki bilvosita mavjud bo‘lishini nazarda tutadi. Intertextuallik quyidagi shakllarda namoyon bo‘lishi mumkin: iqtibos (qoutation), alluziya, plagiat, pastish (Khajiyeva. 2023).

Intertekstuallik murakkab va ko‘p qatlamli adabiy atama bo‘lsa-da, uni, ko‘pincha, keng tarqalgan “ishora” atamasi bilan aralashtirib yuborishadi (Share, 2005). Bu shuni anglatadiki, u majburiy va kontingent intertekstuallik bilan chambarchas bog‘liq, chunki yaratilgan “ishora” tinglovchi yoki tomoshabinning asl manbadan xabardorligiga bog‘liq. Biroq u ham tasodifiy hisoblanadi, chunki ishora, odatda, shunchalik tez-tez yoki tasodifiy ishlatiladigan ibora bo‘lib, uning haqiqiy ma’nosi to‘liq amalga oshirilmaydi.

Alluziya bu noma’lum ishora bo‘lib, u hech qachon oshkorona tasvirlanmagan. I.Willian fikricha, Alluziya adabiy nazariyada muhim va doimiy mavzuga bog‘liq bo‘lib, ya’ni muallifning niyati qaysi talqinda o‘rin egallashidir.

Alluziya va intertekst bu, birinchi navbatda, adabiyotda ushbu yo‘nalishning rivojlanishi bilan tilda paydo bo‘lgan postmodernizm birliklari sifatida tan olinadi. Shuni ta’kidlash lozimki, tilning taqdim etilgan hodisalari keng qamrovli o‘rganilishni talab etadi, bu esa taniqli tilshunoslar uchun ushbu hodisalarni tahlil qilish va bir qator lingvistik farazlarni hal qilish imkonini beradi. Intertekstuallik nazariyasi matnlarni adabiy tahlil qilish bilan birga ko‘rib chiqish va ularning mohiyatini turli nuqtayi nazardan o‘rganishga imkon berdi. Alluziya, xuddi intertekst hodisasi singari, umuman olganda, o‘zaro aloqador matnlarda bog‘lovchi bo‘g‘in vazifasini bajaradi (I.William. 2001).

Alluziya adabiy uslub bo‘lib, unda yozuvchi mashhur shaxs, joy, voqea yoki madaniy artefaktga nozik ishora qiladi. Bu orqali o‘quvchining mavjud bilimlari asosida asarning ma’nosini chuqurlashtirishga intilgan bo‘ladi. Bu usul yozuvchiga murakkab g‘oyalarni ifodalash yoki muayyan kayfiyatni yaratish imkonini beradi. Yozuvchi batafsil tushuntirish yoki izoh berish o‘rniga, o‘quvchining oldingi bilimiga suyangan holda, matnni tezkor va samarali tarzda boyitadi.

Ishoraga boy bo‘lgan ishlar orasida T.S.Eliotning she’riyati ko‘pincha “kinoyali” deb ta’riflanadi, chunki u o‘z asarlarida faqat oldingi bilimlar yordamida anglash mumkin bo‘lgan ismlar, joylar yoki tasvirlarga murojaat qilish odatiga ega. Bu usul asarni o‘qish tajribasini boyitishi mumkin, ammo tayyorgarligi yo‘q o‘quvchilar uchun Eliotning ijodi murakkab va tushunarsiz ko‘rinishi mumkin.

Alluziyaning muhim jihatlari biri shundaki tanlangan ishora o‘quvchi tomonidan tanish bo‘lishi muhim, chunki ba’zi ishoralar aniq qilib talmeh qilinsa, ba’zilari bunday qilmaydi. Ba’zi o‘rinlarda alluziya bu ishora sifatida e’tirof etilsa ba’zi o‘rinlarda esa talmeh san’ati sifatida qaraladi. Shuning uchun ham alluziyani boshqa adabiy termenlar bilan adashtirish oson, masalan:

- alluza va illuziya (illusion): optik yoki vizual tryuk, masalan, “Pepper’s Ghost” misolida;
- allegoriya (allegory): murakkab mavzularni tasviriy ssenariy orqali ifodalaydi, masalan, Jorj Oruelning “Animals Farm”;
- metafora (Metaphor): Bir narsani boshqa narsa sifatida tasvirlab, o‘quvchidan o‘xshashlikka e’tibor qaratishni talab qiladi.

Ushbu parchada Margaret Etvudning The Handmaid’s Tale asaridan: *“...A chair, sunlight, flowers: these are not to be dismissed. I am a live, I breathe, I put my hand out, unfolded into the sunlight ...” by M.Atwood (The Handmaid’s tale)* kabi jumlalar yozuvchining ishoralar orqali mazmun yaratish qobiliyatini ko‘rsatadi.

Alluziya ko‘proq badiiy adabiyotda uchraydi, lekin uni esse, blog, poema yoki badiiy to‘qima asarlarida ham uchrashi mumkin. Akademik yozuvlar ham bundan mustasno emas, lekin, odatda, bu yozuvchining so‘zlaridan ko‘ra muhokama qilingan manbalarda bo‘ladi. R.F.Thomas Alluziyani 6 kategoriyaga bo‘ladi:

1. Tasodifiy alluziya (Casual Allusion): Norasmiy ishlatilishi, matnning tushunish darajasiga sezilarli ta’sir qilmaydi. Masalan, bir qahramonning uyini Tim Berton “o‘zini uyidagidek his qiladigan joy” deb tasvirlash.
2. O‘z-o‘ziga ishora (Self-Reference).

Yozuvchining o‘z asarlariga ishorasi. Masalan, Uolli Lamb o‘zining bir necha asarlarida qahramonlarni bir-biri bilan bog‘laydi. Shuningdek, avvalgi she’r qofiyasini yangi she’r uchun birinchi satr sifatida qo‘llash orqali o‘z-o‘ziga ishora qilish mumkin.”Korrektiv allyuza” atamasi yozuvchi tomonidan bir ishora orqali aslidagi manbani tanqid qilish yoki u bilan bahslashish maqsadida qo‘llaniladigan murojaatni anglatadi. Masalan, Uilyam Shekspirning Romeo va Julyetta asari, ko‘pincha, pok muhabbat va taqdir taqozosi bi-lan bog‘langan oshiqlarning timsoli sifatida ishlatiladi. Biroq yozuvchi bunday korrektirovchi ishoradan foydalanishi mumkin: “Bu yulduzlarning javdariga to‘lib qaragan ikki oshiq faqat muammolar va hayotlarning vayron bo‘lishiga sabab bo‘lish uchun taqdirlangan edi”. Ko‘rinib turgan alluziya *(Apparent Allusion).*

Ko‘rinib turgan ishora bu ma’lum bir manbaga aniq ishora qilish bilan birga, uni rad etish yoki uni tanqid qilishni nazarda tutadi. Korrektiv ishoraga o‘xshash bo‘lsa-da, asosiy farqi shundaki, ko‘rinib turgan ishora aslidagi manbani munozaraga olib kirsa, korrektirovchi ishora unga ochiq qarshilik bildiradi.

Masalan, Toni Morrisonning “The Bluest Eye” asarida Dick and Jane dasturidan olingan bir parchani ishlatgan. Bu parcha bolalarga o‘quv jarayonida madaniyat haqida nima va qanday o‘qitilayotgani haqida bayonot berish uchun ishora sifatida xizmat qilgan (Thomas. 1990).

Sitata (Quotation). Adabiyotda iqtibos – boshqa bir kishining so‘zlari, bayonoti yoki iborasi yozuvchi asariga takroriy qo‘shilganida paydo bo‘ladi. Bu, ko‘pincha, yangi tahlil yoki muhokama doirasida qo‘llaniladi. Asarning asosiy matnlari yoki so‘zlarini saqlash va intertekstuallik va muloqotni rag‘batlantirish jihatlari hisoblanadi.

Adabiyotda iqtibos o‘rni va intertekstuallik bilan hamjihatligi–bu manbadan to‘g‘ridan to‘g‘ri qaytarilgan bir jumla, bo‘lim yoki so‘zlar almashinuvi bo‘libgina qolmasdan, biror matndan keltirilgan iqtibos ikkala matnni o‘zaro oldingi bilimlarga tayangan holda bog‘laydi. U turli sabablarga ko‘ra, qo‘llanilishi mumkin. Iqtiboslar – bu matnga ahamiyat, mazmun va haqiqiylik qo‘shishdagi kuchli vosita. Ular yozuvchining ishida, personajning nutqida yoki adabiyotshunoslik kontekstida mavjud bo‘lishi mumkin. Iqtibosning kuchliligi shundaki, u o‘zining asl kontekstidan olingan bo‘lsa ham, boshqa joyda ham ma’noni saqlab qolishi mumkin.

Iqtibos berishning yana bir afzalliklari shundaki, bir so‘z yoki iboraning asliy mavzusini yoki emotsional ta’sirini uning iqtibos yoki ishorasi orqali ko‘rsatish mumkin. Masalan, Heart of Darkness asarida “The horror!” iborasining ko‘p ishlatilishi yozuvchiga ekzistensial qo‘rquv va hech bir umid yo‘qligiga ishora qilish bilan birga, ahvolning qahrli, yomon shakldagi qiyinchiliklarini ham kuchaytiradi.

Ironiya–(sarkazm) iqtibosdagi so‘zlar kinoya uchun ishlatilganda, ular berilgan kontekstga moslashtiriladi. Personajni tasvirlashga ham keng qo‘llaniladi. Agar yozuvchi o‘z personajini shaxsini, tarixini yoki qarashlarini aytishni xohlasa, u mashhur asarga ishora qilishi mumkin. Masalan, bir personaj Shekspirdan iqtibos keltirishi, uning intellekt va madaniy jahonga oid tushunchalarini namoyon qilishi mumkin.

Iqtiboslar o‘z vaqtidagi fikrlarni keyingi avlodlarga yetkazishda muhim rol o‘ynaydi. Ular, nafaqat o‘tgan davrlardan, balki kelajak avlodlardan ilhom olishda ham o‘zgarishlarni bildirish imkonini beradi. Iqtiboslar, adabiyotni jonli va zamonaviy qiladi, uni o‘quvchi uchun yanada qiziqarli va ta’sirli qiladi. Iqtiboslardan ba’zi hollarda epigraf va shior o‘rinida ham qo‘llaniladi.

Epigraflar – bu boshqa bir manbadagi qisqa iqtibos. Ba’zi adabiy asarlarda o‘z mavzusini yoki ruhiyatini kiritish uchun boshlanishda epigraf qo‘shadilar. Epigraf, masalan, The Great Gatsby asarida Frensis Skott Fisjeraldning eshitilgan epigrafi: *“In my younger and more vulnerable years… ”.*

O‘zbek adabiyotida ham epigraflar keng qo‘llaniladi, masalan, Murod Muhammad Do‘stning “Lolazor” romanidan *“…Sultonlara bosh egmaram, harchand faqiram” Vohid.*

Ushbu epigraf boshqa asardan keltirilgan bir iqtibos bo‘libgina qolmasdan, asarning butun mazmunini qamrab olishga yordam beradi. Iqtiboslar adabiyotda faqat taassurotga yoki voqea to‘g‘risidagi ko‘rsatmalarga qo‘shilish bilan cheklanmaydi, balki ular shaxsiyat, madaniyat va tarixni ommalashtirishning muhim vositasi hamdir. Yozuvchilar, ijodchilar, va tarjimonlar iqtiboslar orqali o‘z asarlarini amaliy va estetik jihatdan boyitishadi.

Simvolizm. Ramziylik – adabiyotda keng qo‘llaniladigan yana bir usul bo‘lib, undagi buyumlar, qahramonlar yoki voqealar, adabiyotdan tashqaridagi narsa yoki tushunchalarni ramz sifatida ifodalaydi. Simvolizmni ta’riflash uchun ramzlar aniq tasvirlar yoki tushuntirishlardan farqli o‘laroq, kengaytirilgan va ko‘pincha noaniq ma’noga ega bo‘ladi.

Abramsning fikriga ko‘ra, “biror narsa yoki voqeani anglatadigan, o‘z navbatida, o‘zidan tashqaridagi narsani yoki kengroq ma’noni bildiradigan so‘z yoki ibora” “ramz” deb ataladi.

Simvolizm orqali yozuvchilar o‘quvchilarga asarni bir necha marta o‘qish va asarga ikkinchi va ehtimol uchinchi nuqtai nazardan qarash imkoniyatini taqdim etadilar. Bu bir narsa, qahramon yoki hara-

katning bir g‘oyani ifodalash uchun ishlatilishidir. Ushbu ramzlar umumiy yoki asar doirasida aniq tushuniladigan ma’noga ega bo‘lishi mumkin (masalan, ta’rifda go‘yo, bo‘rni tinchlikni ramziy qiladi) yoki ular aniq bir asar ichida o‘ziga xos ma’no kasb etishi mumkin. Adabiy asarlardagi ramzlarni tahlil qilish, ramzlarning asosiy g‘oyalarga diqqatni kuchaytirishini, qahramonlarning tavsifini kengaytirishini va hikoyaning ta’sirchan tabiatini oshirishini ko‘rsatadi.

Mavzular tabiatiga kelsak, ramzlarning ishlatilishi, ko‘pincha, bu yoki boshqa mavzularni yanada haqiqiy qilishga yordam beradi. Masalan, Uilliam Goldingning Lord of the Flies asaridagi konx – qonun, tartib va sivilizatsiyani ramziy qiladi. Avvaliga bu narsa neytral ahamiyatga ega bo‘lsa-da, konx sindirilganda, voqea davomida, u ijtimoiy tartibning parchalanishi va qo‘pol vahshiylikni ramziy qiladi. Konx ramzi orqali simvolizmning bu qo‘llanilishi o‘quvchilarga romanning markaziy mavzusini, ya’ni tsivilizatsiya va vahshiylikni to‘liq anglash imkonini beradi.

Ramzlar, shuningdek, qahramonlar yoki harakatlarni kengroq emotsional yoki madaniy bog‘lanishlar bilan bog‘lash orqali kuchli his-tuyg‘ularni uyg‘otishi mumkin. D.Braunning Angels and Devils asarida ramzlar orqali yozilmagan tarixni ochib berishga harakat qilingan. “Illuminati” – o‘rta asrlar davrida katedralni qurish bo‘yicha ilm-fan rivojiga hissa qo‘shgan odamlar guruhi. Ushbu ramz, Renessans davrida ilmiy tadqiqotlarni cherkovdan ruxsat olishsiz amalga oshirish qiyin bo‘lganligini aks ettiradi. Bu ramz, diniy e’tiqodlar va ilm-fan o‘rtasidagi yashirin mojaro haqida gapiradi.

Ba’zi ramzlar mavjudki, ular har xil joylar va vaqt davrlarida odamlar tomonidan anglab etiladi. Ushbu ramzlar, ko‘pincha, umumiy inson tajribasi yoki madaniy miflarga asoslanadi. Masalan:

Yorug‘lik – bu ma’rifat, poklikni va ba’zi hollarda yaxshi narsalarning sodir bo‘lishi kutishini ramziy qiladi. Qorong‘ilik esa, ko‘pincha, noma’lumlik, yovuzlik yoki umidsizlikni ramziy qiladi.

Kabutar – tinchlik yoki masumiyatni yoki Muqaddas Ruhni ramziy qiladi. Masalan, D.Brownning Angels and Devils asarida bo‘r poklikni ramziy qilib, haqiqatga yo‘lni ko‘rsatadi.

Atirgul – go‘zallik va sadoqatni ramziy qiladi. Qadimgi davrlardan boshlab sevgi ramzi sifatida foydalanilgan. Gulli barglar soni beshta bo‘lishi, gender tengligini ramziy qilishi mumkin. Masalan, D.Brownning Da Vinci Code asarida gul ramzi maxfiylikni ochishda muhim rol o‘ynaydi.

Daraxt – ma’lumki, barcha xalqlarning adabiyotida daraxt ramzidan keng foydalaniladi. Ayniqsa, ingliz adabiyotida daraxt hayot va bilimni ifodalashini ko‘rganmiz. Afsonaviy asarlarga nazar tashlasak, daraxtning metaforik ravishda to‘rt qismga bo‘linganini ko‘ramiz: tanasi, ildizlari, shoxlari va barglari. Daraxtning har bir qismi ramziy ma’noga ega. Xususan, daraxtning ildizlari tarix va o‘tmishni, shoxlari kuch-qudratni, tanasi va po‘stlog‘i esa hozirgi zamonni anglatadi. Daraxt, shuningdek, vaqtning o‘tishini ham ifodalaydi: gullash – farovonlik davri, daraxtning mevasi – ma’lum bir maqsadga erishish, barglarning to‘kilishi esa qarilik davrini anglatadi.

Allegorik ramzlar. Allegorik asarlardagi ramzlar, yaxshilik, siyosat yoki falsafaning kengroq tushunchalarini ifodalash uchun yaqinroq ishlatiladi. Allegoriya, bir metaforaning ma’nosining kengaytirilgan shakli bo‘lib, undagi qahramonlar va voqealar ramz sifatida qaraladi.

Tabiiy ramzlar. Qizig‘i shundaki, tabiat har doim ba’zi ramzlarga ega bo‘ladi, chunki tabiiy dunyoning ma’lum elementlari qahramonlarning yoki asar mavzularining ba’zi jihatlarini aks ettiradi. Masalan, Venus yulduzi – ayollarning ayollik va go‘zalligini ramziy qiladi.

Diniy yoki mifologik ramzlar. Ko‘plab asarlarda muallif diniy yoki mifologik ramzlarga murojaat qilib, asar mavzusiga qo‘shimcha qatlamlar kiritishga harakat qiladi. Ushbu ramzlar diniy, etik yoki falsafiy ma’nolarni rivojlantirishi mumkin, chunki ular o‘qilgan madaniy yoki individual qadriyatlar bilan bog‘lanadi.

Adabiyotda ramzlardan foydalanish, asar mazmuni va hikoyaning rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Yozuvchi boshqa mualliflarning asarlaridan intertekstual elementlar orqali ilhom olishni mumkin, shu bilan birga, bu asarlar o‘ziga xos bo‘lishi mumkin. Dan Brown turli diniy kitoblar va Ispaniya hamda Fransiyadagi mahalliy aholi ishonadigan ba’zi artefaktlardan ilhomlangan. Shuning uchun u o‘z asarida erkaklar va ayollar tengligini ifodalovchi ramzlarni jamlagan.

Simvolizmning sentimental ma’nolari jins, yosh, asarga qanday yondashganlik va boshqa ba’zi omillarga qarab farq qilishi mumkin. Bir adabiy asarda obyekt yoki g‘oya bir narsani ifodalasa, boshqa bir adabiyotda u boshqacha ma’noga ega bo‘lishi mumkin. Shu sababli adabiy asarda simvollarning tahlili, ko‘pincha, asarning umumiy tushunchasi va muallifning rejalari asosida amalga oshiriladi. Biror simvol asarda bir necha marta ishlatilishi mumkin va har bir qo‘llanishda u turlicha vazifa bajarishi mumkin.

Simvolizm – bu yozuvchilarga turli bosqichlarda fikrlar va his-tuyg‘ularni ifodalashga yordam beradigan muhim nutq figurasidir. Simvollarni, obyektivlashtirishni, xarakterizatsiyani yoki tarixiylashtirishni

ishlatish, o‘quvchilarni matnni yuzaki ma’nodan chuqurroq tushunishga undashni maqsad qiladi, shunda ular yozuvning xarakterli jihatlarini anglab yetishlari mumkin. Simvollarni ishlatishda biz universal simvollar, kontekstual simvollar yoki tasvirlar va eng muhimi, allegorik motivlarning ishlatilishini ko‘rishimiz mumkin.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, intertextuallik kategoriyalaridan biri bo‘lmish alluziya o‘xshashlikni tashkil etadi, ya’ni bir matn boshqa bir matnga bevosita yoki bilvosita ishora qilish orqali o‘z ma’nosini chuqurlashtiradi. Alluziya adabiy asarlarda, shuningdek, turli madaniy, tarixiy yoki diniy referensiyalar orqali o‘quvchilarga tanish bo‘lgan kontentni kiritish orqali yangi ma’no qatlamlarini yaratadi. Bu, matnlar o‘rtasidagi bog‘lanish va ularning o‘zaro ta’siri orqali adabiy va madaniy muloqotni rivojlantirishga yordam beradi. Suningdek matnda iqtibos keltirish – bu matndan to‘g‘ridan to‘g‘ri parcha keltirish, bu, o‘z navbatida, asarga kuchirmachilikni oldini olish va uni yanada jozibador qilish imkonini beradi. Iqtibos keltirish asarni yanada realistik qilishga yordam beradi, chunki bu orqali boshqa fikrlar yoki avvalgi asarlarga havola qilinadi, bu esa o‘quvchilarga yanada chuqurroq tushuncha beradi. Shuningdek, iqtiboslar matnni boyitadi, unga muayyan kontekst yoki o‘zgacha ma’no qo‘shadi. Bu metod, ayniqsa, adabiy tahlil yoki muhokama qilishda, matnning maqsadiga erishishda foydali bo‘lishi mumkin.

Ramzlar haqiqatdan ham asrlardan buyon insoniyatni o‘ziga jalb qilib kelgan. Ular nafaqat asarlarda sir va sinovlarni yechishda yordam beradi, balki o‘quvchini chuqurroq fikr yuritishga undaydi. Ramzlar biror tushuncha yoki mavzuni tasvirlashda vosita bo‘lib, o‘quvchiga qo‘shimcha ma’no yoki xayoliy qatlamlar ochishga yordam beradi. Ular, ko‘pincha, an’anaviy, madaniy yoki hissiy tasavvurlarga asoslangan bo‘lib, o‘quvchini matnning har bir qatlamini yanada kengroq va boyroq tushunishga undaydi. Shunday qilib, ramzlar adabiyotda muhim vosita sifatida, nafaqat tushuncha berishda, balki o‘quvchi bilan chuqur muloqot o‘rnatishda ham ahamiyatlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

[1]. Abrams M.H. “A Glossary of Literary Terms”. 7th edition. Cornell University, p. 314.

[2]. Clayton John B. (1991). Influence and Intertextuality in Literary History. Univ of Wisconsin Press. ISBN 9780299130343

[3]. Dilso‘z R. Xoshimova. “Alluziya va intertekstuallik lingvistik tushunchalarining o‘zaro bog‘lanishi”. Academic research in educational sciences, volume 2 | ISSUE 4 | 2021 ISSN: 2181-1385 Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021:5.

[4]. Irwin, William (2001). “What Is an Allusion?” The Journal of Aesthetics and Art Criticism, 59 (3), p. 287–297

[5]. Irwin William. “Against intertextuality. Philosophy and Literature”. 2, October, 2004 pp. 227–242.

[6]. F.M.Khajiyeva. “Theoretical aspects of the language learned” manual, Bukhara, 2023, pp. 105–111.

[7]. R.F.Thomas. “Virgil’s Georgics and the art of reference” Harvard Studies in Classical Philology 90 (1986) pp. 171–98.

[8]. Share Perry. (January, 2005). Managing intertextuality–meaning, plagiarism and power. Research Gate.

Mustafayev Shaxboz Baxtiyorovich (O‘zbekiston davlat Jahon tillari universiteti mustaqil izlanuvchisi, o‘qituvchisi; yagonapochta@gmail.com)

KARNAVALIZATSIYA VIRTUALLIKNING SHAKLI SIFATIDA

Annotatsiya. *Maqolada virtual kommunikatsiya fenomeni teatr va o‘rta asrlar karnavallari bilan qiyoslangan holda tahlil qilingan. Muallif virtual konferensiyalarni muloqotning yangi shakli sifatida ko‘rib, unda foydalanuvchilar niqob ostida anonimlikni saqlagan holda, o‘z fikrlarini erkin bildirishlarini ta’kidlaydi. Karnavalizatsiya nazariyasiga tayangan holda, virtual muloqotdagi suhbatlar, trolling va lingvistik o‘zgarishlar karnavallik madaniyatining ifodasi sifatida talqin qilingan. Virtual muloqotning dialoglilik, ijodkorlik va konfliktga moyilligi xususiyatlariga e’tibor qaratilgan.*

Kalit so‘zlar: *virtual muloqot, karnavalizatsiya, niqob, trolling, lingvistik xususiyatlar, anonimlik, muloqot madaniyati.*

Мустафаев Шахбоз Бахтиярович (Узбекский государственный университет мировых языков, независимый исследователь, преподаватель; yagonapochta@gmail.com)

КАРНАВАЛИЗАЦИЯ – КАК ФОРМА ВИРТУАЛЬНОСТИ

Аннотация. *В статье рассмотрен феномен виртуальной коммуникации через призму театрального искусства и средневековых карнавалов. Автор анализирует виртуальные конференции как новую форму общения, где пользователи под масками сохраняют анонимность и свободно выражают свои мысли. Опираясь на теорию карнавальности, обсуждаются особенности диалогов,*